
POLSHA VA RISHTON HAMKORLIGI UCHUN DASTLABKI QADAMLAR QO'YILDI

Hamkorlik ufqlari

Shu kunlarda Farg'ona viloyatida bo'lib turgan Polsha davlatining Varshava shahridan kelgan "Polsha-Osiyo" Savdo palatasi prezidenti Yanush Pexochinski boshchiligidagi delegatsiya xamkorlik qilish maqsadida Rishton tumaniga tashrif buyurdi.

Viloyat hokimining tegishli o'rinbosarlari va tuman hokimi xamrohligida mehmonlar dastlab "Kosto Line Holding" xorijiy korxonasi bo'lib jarayonlar bilan tanishdilar. Mehmonlar to'qimachilik fabrikasida Rishtonda yetishtirilgan paxta xomashyosini qayta ishlab, undan tola, kalava, mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdilar.

Shundan so'ng, "Mingboshi keramik" kulolchilik muzeyida bo'lgan polshaliklar, kulolchilik mahsulotlari bilan tanishishdan tashqari, tayyorlash jarayonlarini ham maroq bilan tomosha qilishdi. Muzeyda murakkab hamda nafis naqshlar, o'ziga xos uslubda yaratilgan, tabiat manzaralari tushirilgan turli ko'rinishdagi serjilo idishlar va kulolchilik buyumlari joylashgan.

Ushbu tashrif xorijlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Ular rishtonlik usta kulollar tomonidan yaratilgan bir-biridan go'zal san'at asarlarini katta qiziqish bilan tomosha qilar ekan o'zlarining hayratlarni yashira olishmadi.

Tashrif yakunida "Chinor plyus" majmuasida o'zaro xamkorlik doirasidagi memorandum imzolandi.

Rishton tumani hokimligi axborot xizmati.

2024-08-29 08:05:32